Ismoilova Gulbaxor Azamovna (Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ismoilovag352@gmail.com)

EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING AHAMIYATI VA AMALIYOTI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekologik madaniyatni rivojlantirishda interfaol usullarning ahamiyati va amaliy qo‘llanish mexanizmlari tahlil etilgan. Oliy ta’lim tizimida fanlararo integratsiya asosida ekologik ta’limni tashkil etishning nazariy va metodik jihatlari yoritilgan hamda interfaol metodlarning talabalarda ekologik ong, mas’uliyat va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, ekologik ong, interfaol usullar, fanlararo integratsiya, ekologik ta’lim, pedagogik texnologiyalar, loyiha metodi, ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat, oliy ta’lim tizimi, innovatsion yondashuv.*

ЗНАЧЕНИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В данной статье проанализированы значение и практические механизмы применения интерактивных методов в развитии экологической культуры. Освещены теоретические и методические аспекты организации экологического образования в системе высшего образования на основе междисциплинарной интеграции, а также обоснована роль интерактивных методов в формировании у студентов экологического сознания, ответственности и практических навыков.*

Ключевые слова: *экологическая культура, экологическое сознание, интерактивные методы, междисциплинарная интеграция, экологическое образование, педагогические технологии, метод проектов, экологическое воспитание, устойчивое развитие, экологическая ответственность, система высшего образования, инновационный подход.*

SIGNIFICANCE AND PRACTICAL MECHANISMS OF APPLYING INTERACTIVE METHODS IN THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE

Annotation. *This article analyzes the importance and practical implementation mechanisms of interactive methods in the development of ecological culture. The theoretical and methodological aspects of organizing environmental education in higher education based on interdisciplinary integration are highlightted, and the role of interactive methods in developing students’ ecological awareness, responsibility, and practical skills is substantiated.*

Keywords: *ecological culture, ecological awareness, interactive methods, interdisciplinary integration, environmental education, pedagogical technologies, project method, environmental upbringing, sustainable development, ecological responsibility, higher education system, innovative approach.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ekologik muammolarning keskinlashuvi, atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslardan noo‘rin foydalanish hamda iqlim o‘zgarishi masalalari ekologik madaniyatni rivojlantirishni ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, yosh avlodda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, ekologik mas’uliyat va barqaror hayot tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim vazifasidir. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida interfaol usullardan samarali foydalanish ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy va ta’sirchan mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Zamonaviy pedagogika fanida interfaol usullar – munozara, “aqliy hujum”, klaster, loyiha metodi, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish – o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularni amaliy faoliyatga yo‘naltiradi. Ayniqsa, ekologik mavzularni o‘qitishda interfaol metodlar o‘quvchilarni muammoga befarq bo‘lmaslikka, atrof-muhit muhofazasiga daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya (Methods). mazkur tadqiqotda ekologik madaniyatni rivojlantirishda interfaol usullarning ahamiyati va amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari interfaol usullardan foydalanish ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari davomida loyiha metodi, “aqliy hujum”, muammoli vaziyat va rolli o‘yinlardan foydalanilgan guruhlarda talabalarning ekologik bilim darajasi, muammolarga nisbatan ongli munosabati hamda amaliy ko‘nikmalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni qayd etdi. Shuningdek, interfaol metodlar talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, jamoada ishlash va ekologik mas’uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qilgani aniqlandi. Dars jarayonida faol ishtirok etgan talabalar ekologik muammolar bo‘yicha aniq taklif va loyiha-

lar ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldilar.

Muhokama (Discussion). Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda tahsil oluvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Pedagogika fanlarini o‘tishda quyidagi didaktik o‘yinlarni qo‘llash mumkin:

“Kim ko‘p yozadi?” o‘yini.

O‘yin tartibi. Talabalar oldida faqat qog‘oz va qalam bo‘lishi kerak. O‘yinni “Xona gullari”, “Manzarali daraxtlar” mavzusi bo‘yicha o‘tkazish, ayniqsa, yaxshi natija beradi. Bu o‘yin uchun ma’lum vaqt belgilanadi. Masalan, “Xona gullari” mavzusi e’lon qilinadi deylik, talabalar esa belgilangan vaqt ichida o‘zlari bilgan barcha xona gullarini yozib chiqadilar. Yozilgan har bir xona guli uchun bir ball beriladi. Ball sifatida rangli kartochkalar beriladi. O‘yinda eng ko‘p kartochka to‘plagan talabalar g‘olib hisoblanadi.

“To‘g‘ri top usuli”. O‘yin tartibi. Bu interfaol usulni deyarli barcha o‘quv fanlarida samarali qo‘llash mumkin. Masalan, manzarali daraxtlarning bir nechtasining rasmi ko‘rsatiladi, shular orasidan kislorod ishlab chiqaradigan, katta bargli, ninabarglilar turini topishi lozim. 10 minut davomida talaba manzarali daraxtlarni izohlab yozma javob berishi kerak. Kimning javobi puxta va aniq bo‘lsa u g‘olib bo‘ladi.

Pedagogika fanlarini o‘rganish jarayonida ekologik tafakkurni shakllantirishda noan’anaviy usullarni qo‘llash talabalarning ilm olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Darhaqiqat, ularning mustaqil fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishga, darslik, qo‘shimcha ta’lim vositalaridan mustaqil bilim ola bilishga o`rgatadi. Bu o‘rinda fan o‘qituvchisining asosiy vazifasi esa talabalarning qiziqishlarini hisobga olish va to‘liq qondirish, ta’limning tashkiliy shakllarini tanlash hisoblanadi. “Ekologik ta’limning o‘ziga xosligi uning yordamida uzatilayotgan madaniyatning xususiyatidan kelib chiqadi va u umumiy ta’limning komplementari hisoblanadi”.[1]

Pedagogika fanlari mashg‘ulotlarida bo‘lajak mutaxassislarni ekologik madaniyatini rivojlantirish omillari quyidagi muhim aspektlarda namoyon bo‘lishi mumkin:

•umumiy vazifani muhim tarkibiy qismi sifatida fan bo‘yicha taqdim qilingan topshiriqlarni sifatli bajarishga talabalarning javobgarligi;

•talabalarning o‘zlarida liderlik xislatlarini shakllantirish;

•hamkorlikdagi faoliyat, qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro yordam va talabalarning do‘stona munosabati jamoada ishlashning muhim shartlari sifatida;

•o‘quv faoliyati, o‘zaro aloqalar va tegishli qadriyatli munosabatlarni uyg‘unlashtirish uchun xavfsiz bo‘lgan o‘ziga xos psixologik muhitni yaratish;

•hamkorlikdagi natijalar, grant nashrlarni olish, konferesniya va forumlarda ishtirok etish orqali bajarilayotgan ishni mahsuldorligi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida fan mavzulari mazmunini integratsiyalash asosida dars jarayoni hamda darsdan tashqari vaqtlarda ekologik yo‘nalishdagi tadbirlarni tizimli tashkil etish talabalarni atrof-muhitga mas’uliyatli munosabat ruhida tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Fanlararo yondashuv asosida olib borilgan ta’lim jarayoni ekologik bilimlarning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlaydi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini yaratadi hamda talabalarda ekologik ong, tafakkur va xulq-atvor madaniyatini shakllantiradi.

Maqola natijalariga asoslanib, oliy ta’lim tizimida ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Fanlararo integratsiyani kuchaytirish** – pedagogika, psixologiya, tabiiy fanlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga ekologik komponentlarni tizimli ravishda kiritish, mavzularni o‘zaro bog‘liq holda yoritish.
2. **Interfaol metodlardan muntazam foydalanish** – “aqliy hujum”, “klaster”, “debat”, “muammoli vaziyat”, “loyiha” metodi va rolli o‘yinlarni ekologik mavzular asosida tashkil etish orqali talabalarning faol ishtirokini ta’minlash.
3. **Ekologik loyihalar va aksiyalarni yo‘lga qo‘yish** – “Yashil makon”, chiqindilarni saralash, daraxt ekish, ekologik targ‘ibot haftaliklari kabi amaliy tadbirlarni talabalar ishtirokida tashkil etish.
4. **Darsdan tashqari faoliyatni boyitish** – ekologik klublar, seminar-treninglar, davra suhbatlari va tanlovlar orqali ekologik ong va mas’uliyatni mustahkamlash.
5. **Raqamli texnologiyalardan foydalanish** – ekologik muammolar bo‘yicha taqdimotlar, videoroliklar, onlayn platformalar va interaktiv testlardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish.

---

[1] Глазачев С.Н. Экологическая культура учителя. Исследования и разработки экогуманитарной парадигмы. Монография, М., “Современный писатель”, 1998, 432 с.

6. **Monitoring va baholash tizimini joriy etish** – talabalarning ekologik bilim, ko‘nikma va qadriyatlarini aniqlashga qaratilgan diagnostik vositalarni ishlab chiqish hamda natijalarni tahlil qilib borish.

Mazkur tavsiyalarni izchil amalga oshirish oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, oliy ta’lim muassasalarida ekologik madaniyatni rivojlantirish fanlararo integratsiya, interfaol metodlar va uzluksiz tarbiyaviy jarayon uyg‘unligida amalga oshirilgandagina samarali natijaga erishish mumkin. Mazkur yo‘nalish bugungi kunda hal etilishi zarur bo‘lgan dolzarb pedagogik vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ЮНЕСКО Бош конференцияси 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи. 30.10.2025. https://president.uz/uz/lists/view/8610

(2). Панин М.С. Молдажанова А.А. Профессиональная культура как содержание профессионализма учителя. Материалы Юбилейной международной научно-практической конференции «Профессионализм педагога: сущность, содержание, перспективы развития». М., МПГУ, МАНПО, 2005, ч. 2, с. 246–250.

(3). Терехов Е. Экологическое образование на пути к системности. “Белорусский климат”, 1997, № 5, с. 18–23.

(4). Глазачев С.Н. Экологическая культура учителя. Исследования и разработки экогуманитарной парадигмы. Монография, М., “Современный писатель”, 1998, 432 с.

(5). Azamovna Ismoilova Gulbaxor. "Preservation of nature is a nationwide issue." International journal of social science & interdisciplinary research. ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.04 (2022), p. 156–164.

Izbaskanova Nasiba Ataniyazovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi; nasiba.izbaskanova@mail.ru)

TOPISHMOQLAR YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlantirish boshlang‘ich ta’limning muhim maqsadlaridan biridir. Zamonaviy pedagoglar o‘quvchilarni faol ravishda o‘rgatish va mustaqil fikrlay olishini rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanishni tavsiya qiladilar. Shulardan biri darslarda topishmoqlardan foydalanish. Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlantirishda topishmoqlarning imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot kognitiv rivojlanish, til o‘rganish va o‘yin orqali ta’lim berishga oid pedagogik nazariyalarga asoslangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, topishmoqlardan muntazam foydalanish o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, so‘z boyligini oshirishga, xotirani mustahkamlashga va ijodiy tasavvurini kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek, topishmoqlar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda qatnashgan bolalar yuqori motivatsiya, diqqat va hamkorlikda o‘rganish qobiliyatini namoyon qiladilar.*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, topishmoqlar, kognitiv rivojlanish.*

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ ЗАГАДОК

Аннотация. *Развитие логического мышления и памяти является одной из важнейших задач начального образования. Современные педагоги рекомендуют использовать различные методы активного обучения, направленные на развитие самостоятельного мышления учащихся. Одним из таких методов является использование загадок на уроках. В данном исследовании рассматриваются возможности применения загадок для развития логического мышления и памяти у учащихся начальных классов. Работа опирается на педагогические теории когнитивного развития, изучения языка и обучения через игру. Результаты исследования показали, что регулярное использование загадок способствует развитию аналитического мышления учащихся, расширению словарного запаса, укреплению памяти и развитию творческого воображения. Кроме того, учащиеся, участвующие в занятиях с использованием загадок, демонстрируют более высокий уровень мотивации, внимания и способности к совместной учебной деятельности.*

Ключевые слова: *логическое мышление, начальное образование, загадки, когнитивное развитие, развитие памяти.*

METHODS OF FORMING LOGICAL THINKING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS USING RIDDLES

Annotation. *Developing logical thinking and memory is one of the important goals of primary education. Modern educators recommend using various methods for active learning and developing students' independent thinking. One of them is using riddles in lessons. In this study, the possibilities of riddles in the development of logical thinking and memory in primary school students were studied. The*